

ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARI XUSUSIDA

Sabinabonu Muxaramova Zavqiddin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Abu Ali ibn Sinoning bolani jamoa ichida tarbiyalash va maktabda o'qitishning afzalligi, do'stlik va muhabbatning inson hayotidagi o'rni, musiqaning nafaqat kichik yoshdagi bolalar, balki kattalarning ham ruhiyatiga ta'siri, jismoniy tarbiyaning ustunliklari haqidagi qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, innovatsiya, mantiq, bilim, jamoa, meros, oila, jamiyat, ma'rifat, maktab, risola, musiqa, bola, suhbat, muhit, sadoqat.*

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ta'siri mazmunida yurtimiz tarixi, milliy ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Zero, birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek "Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros – bu bir hazina. Biz undan oqilona foydalanishimiz kerak" – biz bundan bilishimiz mumkinki har bir yosh avlod o'z ota-bobolarining qoldirgan ma'naviy va moddiy merosini asrab-avaylab undan oqilona foydalanishilari kerak. Ayniqsa biz kabi bo'lg'usi pedagoglar ularning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarini chuqur o'rganib uni hozirgi kun ta'lim tizimiga joriy etishimiz va yangidan-yangi innovatsiyalarni tadbiq etishimiz lozimdir"¹.

Sharqda "Shayx ar-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Alloma 980-yilda Buxoro viloyati Peshku tumanida joylashgan Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga kelgan. Ibn Sino ham boshqa zamondosh olimlar singari matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, falsafa, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlarni meros qoldirgan olimdir. Alloma o'z asarlarida kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi lozim. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng

¹ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik- T.: O'zbekiston, 1993

qo'rqog'idir. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi"², deydi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini takidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Islom dinining muqarddas kitobi "Qur'oni Karim"ning "Zumar" surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: "Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihat qila olurlar"³.

Ma'lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. Ahmad Yassaviy ham o'zining "Yassaviya" tariqatida ham ilmsizlik tufayli hayotda diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik vujudga kelishini aytib o'tgan. Bilimsiz insonni eng tuban shaxs ekanligini, bilimsizlik, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamalakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etgan.

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi, birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Olim bolalarni maktabda jamoa bo'lib o'qitishning foydasini quyidagicha ifodalaydi: O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar;

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Olim haqiqiy do'stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo'lishi mumkinligini aytadi. U "Risolai ishq" asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy

² Ибн Сино Тайр қиссаси. "Фалсафий қиссалар" китобидан. Тошкент, Ўзадабийнашр, 1963, 15-бет

³ Курьони Карим. Ўзбекча изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Фафур Фулом номидаги нашриёти. 1992-йил 339-бет.

burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi.

Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'minlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim prinsiplariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalariga o'zining "Tadbiri manzil" asarida maxsus bo'limni bag'ishlaydi. "Bolani maktabga o'qitish va tarbiyalash" ("Omo'zish va parvarish madrasa farzand") bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi prinsiplar esa bolalarni yangi-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta'sirini takidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy, ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy hislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi. Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashga ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotiga jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi. Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida bir butun, yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo'lib jismoniy tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi. Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish

inson sog'ligini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asosladi.

Tadqiqotchilar ibn Sino musiqaga oid asar yaratganligi, lekin ularning faqat bir qismigina bizgacha yetib kelgani haqida ma'lumot beradilar⁴. Shulardan biri "Musiqqa bilimiga oid to'plam" bo'lib, bunda tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yoki nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtaladi. Unda musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi haqida ham fikrlar bayon etiladi. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali yengil tortsa, uning aksida oromi yo'qoladi, nafrati paydo bo'ladi. Ibn Sino musiqqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etadi. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqqa ilmidan juda muhim ma'lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir.

Ibn Sino o'z asarlarida bola tarbiyasiga alohida to'xtaladi. Bolaga ona qornidaligida, hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Bolaning yetuk inson bo'lib shakllanishi uchun unga g'amxo'rlik, poklik, masuliyatni his etish, do'stona munosabatlar tuyg'usini singdirib borish zarur, deydi olim "Tib qonunlari" asarida. Ayniqsa, inson salomatligini saqlashni faoliyatning boshqa barcha tomonlari bilan bog'lab olib borish g'oyasini ilgari surdi. Ibn Sino inson omilining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi: Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik va aqllilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat va uyatchanlik ijrochilikka, achinish va sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi. Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o'zini ta'magirlikdan tiysa, mo'tadillikka rioya etsa, o'zida hirsning namoyon bo'lishini yengadi, inson yomon illatlarni yengishda o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatni ta'rifini beradi:

mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik;

chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

⁴ Ирисов А. Абу Али ибн Сино. Ҳаёти ва ижодий мероси. Тошкент, "Фан", 1980, 137-139 бетлар

aqllilik– biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi. Ziyraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat,

achinish – kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi.

Johillikni – ilmga, *nodonlikni*– zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, *takabburlikni* adolatga, *nafratni*– sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Ibn Sinoning insonni ulug'lovchi olim sifatida uning har tomonlama rivojlanishiga ishongan holda avvalo bilimlarga ega bo'lishi va bu bilimlarni egallash vositasida aqliy tarbiyani amalga oshirishga oid qarashlari diqqatga sazovordir. Ibn Sinoning axloq bobidagi qarashlarida esa sof insoniy xislatlar, munosabatlar, odob-axloq qoidalari me'yorlari o'z ifodasini topgan. Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa ibn Sinoning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan biri hisoblanadi. Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o'zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy ta'limotini, usullarini yaratib, ta'lim-tarbiya sohasida o'z o'rniga ega bo'ldi. Uning fikricha, kishi aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo'lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq me'yorlariga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi hisoblana olmaydi va u jamiyatga foyda keltira olmaydi. O'zi uchungina yashamasdan xalq uchun, umum manfaat uchun yashashga intiluvchi kishilarni ibn Sino yaxshi axloqli insonlar deb hisoblaydi. Allomaning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'laydi, undagi qudratga ishondi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qildi.

Abu Ali ibn Sinoning inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan biri hisoblanadi. Allomaning ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari bugungi davr uchun ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik- T.: O'zbekiston, 1993.
1. K. Hoshimov, S. Nishonova, M. Imomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. – Toshkent.: "O'qituvchi", 1996, –446 bet.

2. K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. – Toshkent.: "Alisher Navoiy", 2005, –296 bet.
3. O. Hasanboyev, J. Hasanboyev, H. Homidov. Pedagogika tarixi. – Toshkent.: "G'afur G'ulom", 2004, –310 bet.
4. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. – Toshkent. 1963.
5. S. Rahimov. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent.: "O'qituvchi", 1967.
6. A. Irisov. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merrosi. – Toshkent.: "Fan", 1980.
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. (Uch jildlik saylanman).(tuzuvchilar: U. Karimov, H. Hikmatullayev). – Toshkent.: "Qodiriy nomidagi xalq metrosi nashriyoti", 1992-1993.